

NAVOIY QADAMJOLARI ZIYORATI

(Davomi. Boshi 10-11-betlarda.)

Nishopur 7500 yillik tarixga ega. Qohira va Bag'dod tarixi bilan bog'liq Nishopur qadimiyligi jihatidan ikkinchi o'rinda turadi.

Bu ko'hna kent Umar Hayyom, Fariduddin Attor singari ulug' kishilarni yetishtirdi. Fariduddin Attor dunyoga mashhur shoir, Umar Hayyom esa ulug' astronom, matematik va faylasuf.

Universitet tashkil etilganiga 30 yil to'libdi; to'rtta fakulteti bor.

Majlisda ularning olimlari, bizning o'lkalar haqida yaxshi gaplar aytishdi: "London va Parij ko'hna Samarqand va Buxoroning o'rnini bosolmaydi. Nishopur – Eronning gultoji" degan ta'riflarni eshitdik.

Rasmiy majlisdan so'ng, namoz payti bo'lgani uchun, qisqa tanaffus berildi. So'ng adabiyotshunos, san'atshunoslar bilan davra suhbatini uyushtirildi (majlis boshlanganda soat 12:45 edi). Ushbu ilmiy yig'inni ham rektor boshqardi. Majlis uzoq davom etdi. Bilimli olimlar yig'ilgan ekan, ma'nili ma'ruzalar qilishdi. O'rtta asrlarda Xuroson san'ati, Kamoliddin Behzod faoliyati, Navoiy va fors adabiyoti, Xuroson tarixiy arxitekturasini haqidagi ma'ruzalar tinglandi.

Muhokamada biz ham qatnashdik. Biz tarafdin Dilnavoz Yusupova, Karomat Mullaxo'jayeva va men so'zga chiqib, iliq fikrlar bildirdik.

Majlisdan keyin Nishopurning eski qal'asi va qutlug' maqbaralarni ziyorat qildik. Ziyoratimiz shahar tashqarisidagi uchta qutlug' yerga yo'naldi:

(1) Avtobusda shahardan ancha tashqari chiqib, tekis va chiroyli yo'l bilan Nishopurning qadimiy arxeologik kompleksiga bordik. Bu yerda juda katta arxeologik qazishma ishlari olib borilibdi. Hozir usti tom bilan yopig'li, bizning Namangan yaqinidagi Axsikat yodgorlik kompleksi singari.

Qadimiy shahar qoldiqlari bir necha qatlamdan tuzilgan ekan: ustki yuzasi o'rtta asrlarga tegishli, tagidagi qatlam esa saljuqiylar davriga tegishli. Bu qatlam mo'g'ullar davrida xarobaga aylangan. Mo'g'ullar *Qaraqush* degan qopqadan shaharga kirib kelgan ekan. Bu o'ringa qal'a qopqasining Qaraqush atalgani qiziq. Qaraqush eski turkiy tilda "burgut" degani; "Mushtariy yulduzi"ni ham shunday ataganlar.

(2) Qadimiy shahar kompleksidan 400 metrcha yurilib, Fariduddin Attor maqbarasiga boriladi. Maqbara XIII yuzyilda qurilgan, keyin Alisher Navoiy tarafidan qayta tiklangan bo'lib, Nishopurning eng qutlug' ziyoratgohlaridan sanaladi.

Hovlisi juda katta; tevaragi temir panjara va yuqori tarafi g'ishtli devor bilan o'rab qo'yilibdi. Hovlisida eski baland-baland archalar. Maqbaraga keluvchilarning keti uzilmaydi.

Kiraverishda Attorga byust ishlangan. Ichkari kirsangiz, o'rtada salobatli maqbara. Oyoq kiyimlarni yechib, ichkari kirdik. Tiz cho'kib o'tirildi va ulug' donishmand shoir ruhiga bag'ishlab tilovat qilindi. So'ngra qabrtosh va undagi bitig'larni kuzatdik. Qabr ustida ikkita tosh turibdi: biri tik, ikkinchisi qabrga uzala holda. Tik turgan qabrtoshga Attorning she'ri bitilgan, asl yozuvli qabrtosh o'sha bo'lgani uchun, uni shisha bilan qoplab

Navoiyshunoslar qadimiy Xurosonda

qo'yilibdi. Qabrga uzala qo'yilgan yozuvli tosh esa yangi.

Maqbaradan chiqib, biroz hovlini aylandik; hovlida ham bir tilovat qilindi. So'ngra mashinaga o'tirib, Umar Hayyom maqbarasiga yo'l soldik.

(3) Umar Hayyom maqbarasi bu yerdan uncha uzoq emas. Aytishlaricha, maqbara Umar Hayyomning o'z bog'iga o'rnatilgan. U juda katta yerni egallaydi. Tevaragi eski, baquvvat archalar bilan to'la. Maqbaraning o'zi ham, uslubi ham yangicha: matematik, astronomik tasavvur uyg'otadi; u taralib turgan yorug'lik shaklida ishlangan. Qabr ustidagi tosh ham shunday ko'rinishda.

Maqbaraning bir tarafida eski tarixiy masjid bor. Maqbara unga taqalib qolmasin deb, burungi qabr o'rtaroq surilib, binosi ham yangilangan ekan.

Maqbaraning tevaragida rasmga tushdik.

Umar Hayyom maqbarasini ziyorat qilgach, namozdan keyin soat 18:00 da mashinaga o'tirib, Mashhad shahriga jo'nab ketdik. Nishopur bilan Mashhad oralig'i 125 chaqirim. Qorong'ida yo'l bosib, soat 20 larda Mashhadga kirib bordik.

Mashhad juda chiroyli va tartibli shahar. Kirishingiz bilan e'tiborni o'ziga tortadi. Ko'chalari keng va tekis; har qadamda do'kon.

Shinamgina yemak uyida ovqatlandik. Mashhadga biz yaxshi bir mehmonxonaga joylashdik, har birimizga alohida xona berishdi.

2024-yil, fevral oyining o'n oltinchi kuni.

Ertalabki choydan keyin mashinaga o'tirib yo'lga tushdik.

Tus shahrining eski devori yoniga kelganda, mashina to'xtadi. Birinchi ziyoratgohimiz Imom G'azzoliy maqbarasi bo'ldi. Maqbara panjara bilan o'rab qo'yilibdi. Ichkari kirganda chap tarafda Tusning eski qoldiqlari; arxeologik qazishmalardan so'ng usti tom bilan yopib qo'yilibdi. O'ng tarafda katta maqbara. Aytishlaricha, Imom G'azzoliy qabri taxminan shu yerda. Lekin qabr joyi aniq bo'lmagani uchun maqbara yaqiniga ramziy qabrtosh o'rnatib, ustiga yozib ham qo'yishibdi.

Maqbara juda salobatli, lekin ta'mirlanmagan. Aytarli eski ko'rinishida. Ichkari kirdik; ancha baland. Gumbazining burchak-burchagida bezakli qoldiqlari saqlanib turibdi; anchasi ko'chib tushgan.

Menimcha, tarixiy obida yaxshi saqlangan bo'lsa, uni o'ziday qoldirgan ma'kul. Bizdan keyingi avlod ham uni asl holda ko'rsin.

Maqbaraning ichiga keldi-ketdi ko'risi uchun turli eksponatlar va chizmalar, eski topilmalar oyna tagiga qo'yib qo'yilgan. Maqbara hovlisiga qator qilib yig'ochlar ekilgan.

Bu yerdan chiqib Firdavsiy ziyoratgohiga bordik. U ham Tusda; orasi uzoq emas.

Katta maydonga yetganda mashinalar to'xtaydi, u yog'iga yayov kirib boriladi. Maydonda odam nihoyatda ko'p.

"Shohnoma"xonlik ana shu yerdan boshlanadi. O'quvchi yoshlar, san'atkorlar "Shohnoma"dan olingan she'rlar asosida sahna ko'rinishini tayyorlagan. Ular zavq bilan, obrazga kirib asar qahramonlarini ko'z o'ngingizda jonlantiradi. Bir yoqda masnaviy bilimdonlari bilan jamoaning qizg'in suhbatini. Bilimlisi masnaviydan bayt aytsa, butun jamoa unga ergashadi; xalqning ulug'idan kichigi shu baytini biladi.

Maydonni kechib maqbara sari yuridik. Maqbara hovlisi panjara bilan o'rog'liq. Tavaragi orasta, o'rtaliqda muhtasham maqbara. Aytishlaricha, u bir necha bor yangilangan; hozirgi ko'rinishida tashi qizg'ish-jigarrang marmar bilan qoplangan. Marmarli zinapoyadan tushib ichkari kiriladi.

Maqbara keng va baland: o'rtada katta qabrtosh; tevarakdagi devorlarga "Shohnoma" voqealari asosida ishlangan haykallar: Rustamning dev bilan olishuvi va boshqalar. Yerchi bizni yetaklab baland ovozdagi obrazga kirib devoriy tasvirlarni tushuntira ketdi.

Keyin qabrtosh yoniga kelib, tilovat qilindi. Odam tiqilinch.

Tashqarida "Shohnoma"ning baytlarini qo'shiqqa solgan bir hofizning qabri bor ekan; uni ham ziyorat qildik.

Biz kelgan yo'lda Rustam va uning otiga ishlangan haykalgacha ko'zimiz tushgandi, mashinada orqaga qaytib, uning soyasida rasmga tushdik.

Tushlikdan so'ng Mashhadagi, qolaversa, Erondagi eng mashhur Imom Rizo kompleksi (harami)ni borib ko'rdik. Imom Rizo kompleksi islom madaniyatining eng yirik yodgorliklaridan biridir.

Imom Rizo kompleksi (yoki Rizaviy harami / kompleksi) Eronning Xurosoni Razaviy viloyati Mashhad shahrida joylashgan bo'lib, sakkizinchi imom Aliy bin Muso ar-Rizoga bag'ishlab qurilgan.

Ushbu kompleksning eng qadimgi qismlari XIII yuzyil boshlariga oid. Temuriylar davrida boshqa tarixiy obidalar barobarida ushbu kompleksga ham katta e'tibor berildi. Undan keyingi e'tibor safaviylar davrida bo'ldi.

Turli davrlarda qayta qurish natijasida kompleks maydoni o'n ikki ming kv metrdan bir million kv metrga yetgan. Ushbu kompleks eng ko'p kishi sig'adigan masjidlar ichida ikkinchi o'rinni egallaydi. Yil davomida 80 million kishi u yerni ziyorat qiladi.

Haramga birinchi marta 40 chaqirim uzoqliqdagi buloqdan ariq qazdirib, suv keltirgan Alisher Navoiy bo'ladi. Undan tashqari, Navoiy haramga ayvon qurdirgan. Keyinchalik Nodirshoh davrida tilakorlik qilingani uchun uni "Tilla ayvon" yoki "Nodiriy ayvoni" deb atay boshlandi.

Imom Rizo harami masjidlar, maqbaralar, ravoqlar, sahnalar, kutubxona va muzeyni o'z ichiga oladi. Hozir ushbu kompleksning to'qqizta hovlisi (sahnasi) bor.

Kompleksdagi masjidlardan biri Gavharshodbegim masjidi bo'lib, 2855 kv metr maydoni bilan Mashhadning eng birinchi, eng eski va eng katta jome masjidi sanaladi. Bu masjid klassik uslub-

da, to'rt ayvonli qilib qurilgan. Masjid gumbazining balandligi 41 metr bo'lib, Maqsura ayvonining tepasida joylashgan. Gumbazning ikki tegrasida 43 metrli ikkita minora joylashgan va ularning e'tiborli jihati yer sathidan boshlanganidir. Masjid peshtoqidagi suls xatli yozuvlar Boysunqir mirzo tarafidan yozdirilgan ekan.

2024-yil, fevral oyining o'n yettinchi kuni.

Shanba kuni ertalab mehmonxonadan chiqib, mashinada yana Imom Rizo kompleksiga bordik. Bugun endi kutubxona bilan tanishdik.

Boshlab bizni ovqatlantirgani olib kirishdi. Keldi-ketdining keti uzilmaydi, shunday esa-da muzeyga kelganlarni ovqatlantirishar ekan. Biz ovqatlanib bo'lgach, kutubxonaga o'tdik.

Kutubxona nihoyatda katta va tartibli, u yerda 5000000 kitob saqlanar ekan, "yana shuncha kitob saqlashga imkoniyatimiz bor", deyishdi. Kitob saqlanadigan xonalarni ham ko'rdik. Shu yerda mutaxassis olimlar, fond boshliqlari kutubxona va kitobat ishi bilan bog'liq muhim ma'lumotlarni so'zlab berishdi.

Keyin Olimjon Davlatov u yerdagi qo'lyozmalar fondini ko'rish istagida ekanimizni aytdi. Shundan so'ng bizni qo'lyozmalar fondiga olib kirishdi. Fond boshlig'i bizni bir xonaga o'tkazib, ichkaridan Navoiy "Majolis un-nafois" asarining nodir qo'lyozmasini olib chiqdi; kitobni varaqlab bizga ko'rsatdi. Kitob yaxshi saqlangan; chiroyli qo'lyozma. "Kitobning elektron nusxasini olsak bo'ladimi?", deb so'raganimizda: "Tushdan keyin kelsangiz, elektron nusxasi bor; sizga ham beraman", deb aytdi.

Fond bilan tanishib bo'lgach, tashqari chiqdik. Olimjon Davlatov kechga yaqin kutubxonaga kelib, ular va'da qilgan qo'lyozmaning elektron nusxasini oldi. Toshkentga qaytganimizda o'sha kitoblar bilan qiziqdim. Chambarak diskda ikki kitobning elektron nusxasi bor ekan: biri "Majolis un-nafois" asarining biz ko'rgan nusxasi; ikkinchisi, Navoiy devonlari.

Mashhadagi yirik uchrashuv Firdavsiy universitetida bo'lib o'tdi. Universitet olimlari Xuroson tarixi, san'ati, adabiyoti bo'yicha ma'ruzalar qildilar. Ma'ruzalardan biri Eron kutubxonalarida saqlanayotgan Navoiy asarlarining qo'lyozmalariga bag'ishlandi. Unda ta'kidlanishicha, Navoiy asarlari Eron kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozmalarining soni 258 ta. Olimning urg'ulashicha, bu faqat ro'yxatga olinib, tavsiflanganlari. Hali turli fondlarda ro'yxatga olinmagan qo'lyozmalar ham bor. Ilmiy suhbat mazmunli o'tdi.

Majlis yakunida kitoblar ayiriboshlandi.

Kechga yaqin Mashhad mahalliy aeroportidan uchoqda Tehronga uchib ketdik.

2024-yil, fevral oyining o'n sakkizinchi kuni.

Yakshanba kuni tong sahada Tehron xalqaro aeroportidan Toshkentga uchdik. Kunduz 13:40 da uchog'imiz Toshkentga kelib qo'ndi.

Qosimjon SODIQOV,
filologiya fanlari doktori,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori

(Davomi 16-betda.)